

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-soni)**



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

BRITANIYA DISTOPIYA ROMANLARINING EVOLYUTSIYASI: IJTIMOIY, SIYOSIY VA TEKNOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Shukurova Ramina Djalolitdinovna
TATU Samarqand filiali
“Tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
raminashukurova85@gmail.com
tel.: (90)4543132

Annotatsiya. Ushbu maqolada Britaniya distopiya adabiyotining rivojlanishi va uning texnologik, siyosiy hamda ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Maqolada distopiya janri, ayniqsa, texnologiyaning jamiyatga ta’siri, totalitarizm, kuzatuv texnologiyalari, manipulyatsiya va gender tengsizliklari kabi asosiy mavzular yoritiladi. Jorj Oruell, Aldous Haksli va Naomi Oldermanning asarlariga tayanib, distopiya romanlarining evolyutsiyasi va bu asarlarning kelajakdagi jamiyat va texnologik rivojlanish haqidagi ogohlantirishlari ko‘rsatiladi. Maqola Oruellning 1984, Xaksliyning *Ajoyib yangi dunyo* va Oldermanning romanlari orqali totalitar nazorat, manipulyatsiya va ijtimoiy kuch dinamikalariga oid fikrlarni tahlil qilib, distopiya adabiyotining zamonaviy ijtimoiy va siyosiy kontekstda qanday ahamiyat kasb etishini o‘rganadi. Bu asarlar nafaqat badiiy asarlar sifatida, balki jamiyat rivojlanishining muhim ko‘zgusi sifatida ham yuksak baholanishi kerak.

Kalit so‘zlar: Britaniya distopiya adabiyoti, jamiyatning kelajag, totalitar tuzumlar, texnologik nazorat, inson huquqlari, industrialism, Biotexnologiya, sun’iy intellect, gender repressiyasi, ijtimoiy tengsizlik, axborot nazorati, inson erkinligi.

Аннотация. В статье анализируется развитие британской антиутопической литературы и ее связь с технологическими, политическими и социальными изменениями. В статье рассматривается жанр антиутопии, в частности его ключевые темы, такие как влияние технологий на общество, тоталитаризм, технологии слежки, манипуляция и гендерное неравенство. Опираясь на произведения Джорджа Оруэлла, Олдоса Хаксли и Наоми Олдерман, антиутопические романы и их предостережения о будущем общества и технологическом развитии. В статье рассматривается актуальность антиутопической литературы в современных социальных и политических контекстах путем анализа идей тоталитарного контроля, манипуляции и динамики социальной власти в произведениях Оруэлла «1984», Хаксли «О дивный новый мир» и Олдермена. Эти работы следует высоко ценить не только как произведения искусства, но и как важные отражения развития общества.

Ключевые слова: британская антиутопическая литература, будущее общества, тоталитарные режимы, технологический контроль, права человека, индустриализм, биотехнологии, искусственный интеллект, гендерные репрессии, социальное неравенство, информационный контроль, свобода человека.

Abstract. This article examines the development of British dystopian literature and its relationship to technological, political, and social change. The article examines the dystopian genre, particularly the impact of technology on society, totalitarianism, surveillance technologies, manipulation, and gender inequality. Drawing on the works of George Orwell, Aldous Huxley, and Naomi Alderman, it traces the evolution of dystopian novels and their warnings about future society and technological development. The article examines the relevance of dystopian literature in contemporary social and political contexts by examining Orwell's 1984, Huxley's Brave New World, and Alderman's Power novels, examining ideas about totalitarian control, manipulation, and social power dynamics. These works should be valued not only as works of art but also as important mirrors of societal development.

Key words: British dystopian literature, future of society, totalitarian regimes, technological control, human rights, industrialism, biotechnology, artificial intelligence, gender repression, social inequality, information control, human freedom.

Kirish

Britaniya distopiya adabiyoti o‘zining chuqur ijtimoiy va siyosiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu janr asarlarida jamiyatning kelajagi haqida tashvishlar, totalitar tuzumlar, texnologik nazorat va inson huquqlari mavzulari yoritiladi. Avvalambor, distopiya tushunchasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, distopiya bu jamiyatning kelajakdagi qorong‘i, repressiv va totalitar shakli sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha odatda adabiyot, kino va falsafada aks ettirilgan bo‘lib, u inson erkinligi, axloqiy tanazzul va texnologik yoki ijtimoiy nazoratning haddan tashqari kuchayishiga asoslangan. Jorj Oruell, Aldous Xaksli va Naomi Oldermanning romanlari bu evolyutsiyani kuzatish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada ushbu yozuvchilarining asarlari misolida Britaniya distopiya romanlarining rivojlanishi va ularning ijtimoiy, siyosiy hamda texnologik o‘zgarishlar bilan qanday bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Britaniya distopiya romanlarining evollutsiyasi, asosan, jamiyat va texnologiyalarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Texnologik o‘zgartirishlar distopiya janrida ijtimoiy tizimlarning qanday qiyinchiliklarga duch kelishini va bunday o‘zgarishlarning kutilmagan oqibatlarini ko‘rsatadi.

Usullari va tahlili.

1. **Erta industrializm:** 19-asrning oxirida, industrial inqilobdan so‘ng, texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi Britaniya distopiya romanlariga ta’sir o‘tkazdi. Masalan, H.G. Wellsning *The Time Machine* (1895) asari, texnologiyaning insoniyatni qanday ajratib qo‘yishi va undan kelajakda qanday falokatlar kelib chiqishini tasvirlaydi.

2. Totalitarizm va monitoring texnologiyalari: 20-asrning o‘rtalarida, ayniqsa, Ikkinci Jahon urushidan so‘ng distopiya romanlarida totalitar rejimlar va jahonni nazorat qilish texnologiyalari mavzusi kuchaygan. George Orwellning 1984 (1949) asarida, nazorat qilish texnologiyalari va kuchli propaganda yordamida jamiyatni boshqarish tasvirlanadi. Bu davrda telekommunikatsiya va kuzatuv texnologiyalarining taraqqiyoti haqida gapiriladi.

3. Kiberpank: 1980-90-yillarda, kiberpank janri distopiya romanlarida paydo bo‘ldi. U texnologiya va insoniyatning kuchli o‘zaro ta’siri, kibernetika va sun’iy intellektning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy nohaqlikni tasvirlaydi. Masalan, William Gibsonning *Neuromancer* (1984) asari, virtual haqiqat va sun’iy intellektni kiberpank kontekstida o‘rganadi. Bu davrda texnologiya o‘zining ijtimoiy ta’sirini aniq ko‘rsatdi, ayniqsa, kiberuzluksiz va muvozanatsiz jamiyatlarda.

4. Biotexnologiya va sun’iy intellekt: Yangi avlod distopiya romanlarida, ayniqsa, 21-asrda, biotexnologiya, genetik modifikatsiya va sun’iy intellektning rivojlanishi o‘zgarmas jihatlarni ko‘rsatmoqda. Masalan, Kazuo Ishiguroning *Never Let Me Go* (2005) asarida, genetik manipulyatsiya va insonlarni klonlash texnologiyasi orqali jamiyatda yangi tengsizliklar paydo bo‘lgan.

Britaniya distopiya romanlarining evolyutsiyasi texnologiyaning jamiyatga ta’sirini va ularning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy oqibatlarini o‘rganishga yordam beradi. Bu romanlar ko‘pincha texnologiyaning yomon niyatli yoki kutilmagan oqibatlari bilan bog‘liq tahdidlarni ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchilarga insoniyatning kelajagi va texnologik taraqqiyotning muammolarini ko‘rsatadi.

Jorj Oruell va totalitar nazorat Jorj Oruellning "1984" romani Britaniya distopiya adabiyotining eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, totalitar davlat tomonidan mutlaq nazorat mavzusini ochib beradi. Romanda texnologiya davlatning aholini kuzatish va nazorat qilish vositasi sifatida tasvirlanadi. Oruellning asari Ikkinci Jahon urushidan keyingi siyosiy iqlim va sovuq urush davrining repressiv tuzumlariga ishora qiladi. U o‘z asarida shaxsiy hayotga bo‘lgan tajovuz, haqiqat manipulyatsiyasi va mustabid hukumatlarning kuchayishini ko‘rsatadi.

Jorj Oruell (1903–1950) zamонавијади адабијотиң ең мүхим юзувчилардан бири бо‘lib, унинг ижоди аyniqsa totalitar nazorat va repressiv jamiyatlarni tasvirlash bilan mashhur. U o‘zining "1984" (1949) romani orqali totalitar tuzumlar qanday ishlashi, ularning inson erkinligi va ongiga qanday tahdid solishini ochib bergen.

Jorj Oruellning hayoti va Ilhom Manbalari Jorj Oruell, asl ismi Erik Artur Bler, Britaniya Hindistonida tug‘ilgan. Uning siyosiy qarashlari va asarlari hayotidagi turli tajribalardan shakllangan. U Ispaniya fuqarolar urushida qatnashib, Stalinizm va fashizmning repressiv tabiatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bu tajribalar keyinchalik uning "Hayvonot bog‘i" va "1984" romanlarida aks etgan.

"1984" va Totalitar Nazorat

"1984" romani totalitar jamiyat haqidagi eng ta’sirchan asarlardan biri hisoblanadi. Asarda inson hayoti ustidan to‘liq nazorat o‘rnatgan Okeaniya davlati tasvirlangan. Hukumat doimiy kuzatuv, matbuot senzurasidan foydalanib, fuqarolarning fikrlash jarayonini boshqaradi.

• **Katta Aka (Big Brother)** – mutlaq hukmdor timsoli bo‘lib, har bir inson ustidan nazorat olib boradi.

• **"Ikkita o‘ylash" (Doublethink)** – haqiqatni buzib ko‘rsatish va odamlarni ikki xil qarama-qarshi fikrga ishonishga majburlash.

• **"Yangi so‘z" (Newspeak)** – tilni manipulyatsiya qilish orqali odamlarning erkin fikrlashini cheklash.

Oruellning Totalitarizmga Qarshi Xabarlari

Oruell asarlari repressiv hokimiyatning inson ongi va jamiyat ustidan qanday hukmronlik qilishini ochib beradi. Uning "1984" romanida nazorat texnologiyalarining rivojlanishi, axborot buzilishi va haqiqatni buzib ko‘rsatish kabi mavzular bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda

Jorj Oruellning totalitarizm haqidagi g‘oyalari zamonaviy dunyoda ham katta ahamiyatga ega. "1984" romani nafaqat tarixiy asar, balki hozirgi zamon uchun ham ogohlantirish bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi raqamli davrda, Oruell tasvirlagan kuzatuv va nazorat mexanizmlari yanada rivojlanib, inson erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi oldida yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Shunday ekan, Oruell asarlari bizga tanqidiy fikrlash va erkinlikni himoya qilish muhimligini eslatib turadi.

Aldous Xaksli va jamiyatni manipulyatsiya qilish Aldous Xakslining "Ajoyib yangi dunyo" romani texnologik rivojlanish orqali jamiyatni manipulyatsiya qilish mavzusini o‘rganadi. Oruellning "1984" romanidan farqli ravishda, Xakslining asarida boshqaruv zo‘ravonlik orqali emas, balki odamlarni qanoatlantirish va ularning e’tiborini chalg‘itish orqali amalga oshiriladi. Ushbu romanda farmatsevtika, genetik muhandislik va propaganda vositalari insoniyatning mustaqil fikrlash qobiliyatini yo‘qotishiga olib kelishi ko‘rsatiladi. 20-asrning texnologik taraqqiyoti va iste’mol jamiyatni rivojlanishi ushbu asarning asosiy ilhom manbalaridan biri bo‘ldi.

"Ajoyib yangi dunyo" romani sun‘iy ravishda yaratilgan jamiyatni tasvirlaydi, unda insonlar genetik muhandislik yordamida sinflarga bo‘lingan. "Alfa", "Beta", "Gama", "Delta" va "Epsilon" kabi ijtimoiy sinflar mavjud bo‘lib, har bir sinf ma'lum bir darajadagi intellektual va jismoniy qobiliyatlarga ega. Hukumat odamlarni tinch va itoatkor saqlash uchun "Soma" nomli doridan foydalanadi, bu esa haqiqatdan qochishning eng samarali vositalaridan biriga aylanadi.

Romandagi distopik elementlar orasida shaxsiy erkinliklarning yo‘qolishi, inson his-tuyg‘ularining sun‘iy yo‘l bilan boshqarilishi va individualizmning yo‘q qilinishi alohida o‘rin tutadi. Xakslining asari insoniyatning texnologik taraqqiyot ortidan kelayotgan ijtimoiy va axloqiy muammolarni chuqur yoritadi. U jamiyatni mukammal nazorat qilishning boshqa

usulini ko‘rsatadi: insonlarga hech narsa yetishmaydigan darajada farovonlik berish orqali ularning haqiqiy erkinligi yo‘q qilinadi.

Bundan tashqari, Xaksli bu jamiyatda san’at, falsafa va chuqur fikrlashga ehtiyoj qolmaganini ko‘rsatadi. Insonlar faqatgina jismoniy qulaylik va lazzatlanish orqali yashashga moslashtirilgan, shuning uchun ham ular haqiqiy erkinlikni yo‘qotganlar. "Ajoyib yangi dunyo" asari bizga insoniyatning axloqiy qadriyatlari texnologik rivojlanish natijasida qanday o‘zgarishi mumkinligini chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

Naomi Olderman va gender hamda kuch dinamikasi Zamonaviy distopiya adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Naomi Olderman hisoblanadi. Uning "Kuch" romani gender munosabatlari va kuch dinamikasi mavzularini yangi burchakdan ko‘rib chiqadi. Ushbu romanda ayollar kutilmaganda elektr energiyasiga ega bo‘lib, jismonan erkaklardan ustun bo‘lishadi. Natijada gender kuch muvozanati o‘zgaradi va jamiyatda yangi zulm shakllari paydo bo‘ladi. Ushbu roman zamonaviy feminist harakatlar, biologiya va kuchning ijtimoiy ta’siri haqidagi muhokamalar bilan bog‘liq. Oldermanning asari XXI asr boshidagi ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarni aks ettiradi.

21-asrda texnologianing keskin rivojlanishi bilan distopik fikrlar yangi yo‘nalishlarga ega bo‘ldi. Endi distopiyalar sun’iy intellekt, internet nazorati, iqlim o‘zgarishi va megakorporatsiyalar hukmronligi kabi muammolarni qamrab olmoqda:

- **Ray Bradburyning “Fahrenheit 451” (1953)** – axborot nazorati va senzura.
- **Margaret Atwoodning “Qo‘riqchi qizining qissasi” (1985)** – gender repressiyasi va totalitarizm.
- **Suzan Kollinzning “Och arvohlar o‘yini” (2008)** – postapokaliptik jamiyat haqida.

Xulosa

Jorj Oruell, Aldous Xaksli va Naomi Oldermanning distopik romanlari Britaniya jamiyatining turli davrlaridagi tashvishlarini aks ettiradi. Oruellning totalitar nazorat haqidagi ogohlantirishi, Xakslining manipulyatsiya va iste’mol jamiyati haqidagi tahlili, shuningdek, Oldermanning gender va kuch dinamikasiga oid fikrlari bizga distopiya janrining evolyutsiyasi va uning jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan qanday bog‘langanini tushunish imkonini beradi. Ushbu romanlar nafaqat badiiy asarlar sifatida, balki jamiyat rivojlanishining muhim ko‘zgusi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Orwell, George. *1984*. Harvill Secker, 1949.
2. Huxley, Aldous. *Brave New World*. Chatto & Windus, 1932.
3. Alderman, Naomi. *The Power*. Viking, 2016.
4. Wells, H.G.. *The Time Machine*. William Heinemann, 1895.
5. Gibson, William. *Neuromancer*. Ace, 1984.
6. Ishiguro, Kazuo. *Never Let Me Go*. Faber and Faber, 2005.
7. Bradbury, Ray. *Fahrenheit 451*. Ballantine Books, 1953.

8. Atwood, Margaret. *The Handmaid’s Tale*. McClelland and Stewart, 1985.
9. Collins, Suzanne. *The Hunger Games*. Scholastic Press, 2008.
10. Ibatova A.Sh. “Research of terminological systems of vocabulary units”. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 02, Issue 09, 2024, ISSN (E): 2993-2769. IF (Impact Factor):10.23/ www. grnjournal.us /Amerika, P.51-54